



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SIRDARYO VILOYATI HOKIMINING QARORI

2023 - yil 30 - noyabr

374-9-0-Q/23

Sirdaryo viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-200-son farmonining ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-200-son farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 6-, 25-moddalariga asosan qaror qilaman:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-200-son farmoni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoni bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi (keyingi o‘rinlarda – Milliy kengash), Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (keyingi o‘rinlarda – Agentlik), Bosh prokuraturaning korrupsiyaga oid jinoyatlarning oldini olish bo‘yicha quyidagi tizimni joriy etish haqidagi taklifi ma’qullanganligi:

har chorakda Agentlik davlat organlari va tashkilotlari kesimida sodir etilgan korrupsiyaga oid jinoyatlarni tahlil qiladi va ushbu jinoyatlar ko‘rsatkichi oshgan davlat organlari va tashkilotlariga kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar belgilash uchun Agentlik xodimlari ishtirokida ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan taqdimnoma kiritib borishi;

har yarim yilda jinoyatlarning oldini olish hamda ularga imkon bergan

omillarni bartaraf etish bo'yicha ko'rilayotgan choralar Milliy kengash yig'ilishlarida tegishli davlat organlari va tashkilotlarining birinchi rahbarlari ishtirokida tanqidiy muhokama qilib borishi;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2023-2024-yillarga mo'ljallangan davlat dasturi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

2023-yil 1-dekabrda boshlab ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar ro'yxati quyidagi ma'lumotlar bilan to'ldirilganligi:

hududlar kesimida "Haj" tadbiriga borish uchun navbatda turgan ziyoratchilarning yagona onlayn navbati to'g'risidagi (ziyosatga boruvchi shaxsning arizasi navbatga qo'yilgan sana va ro'yxatdagi tartib raqami) ma'lumotlari;

bolalarni davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qabul qilish uchun berilgan arizalar navbati (ro'yxati) to'g'risidagi (ariza navbatga qo'yilgan sana, ro'yxatdagi tartib raqami, yosh guruhi hamda tashkilot raqami) ma'lumotlari;

davlat organlari va tashkilotlarida davlat xaridlarini amalga oshirish tartib-taomillarini belgilovchi xarid komissiyasining ichki idoraviy tartibi (nizom, reglament, yo'riqnoma yoki boshqa ichki idoraviy hujjat);

markaziy, hududiy va tizim tashkilotlarida bo'sh ish o'rinlari, ishga qabul qilish shartlari, nomzodlarga qo'yiladigan talablar va taqdim qilinishi lozim bo'lgan hujjatlar to'g'risidagi ma'lumotlari;

davlat organlari va tashkilotlari tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlarga taqdim etilgan grant va ijtimoiy buyurtma loyihalari haqidagi ma'lumotlar, shu jumladan g'olib bo'lgan nodavlat notijorat tashkilotlari va ularning buyurtma doirasida bajargan ishlari yuzasidan hisobotlari haqidagi ma'lumotlari;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6247-son farmoniga 2-ilovaga muvofiq qo'shimcha kiritilganligi;

Shuningdek, Agentlikning quyidagi jarayonlarni internet tarmog'i orqali jonli efirga uzatish tartibini joriy etish to'g'risidagi taklifi ma'qullanganligi:

a) falsafa doktori (Phd) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun ilmiy kengash tomonidan o'tkaziladigan dissertatsiya himoyasi (yopiq ilmiy ishlar bundan mustasno);

b) o'rta-maxsus va professional ta'lim muassasalarining, (shu jumladan, "Temurbeklar maktablari" harbiy-akademik litseylarning) test sinovlari hamda Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarga kirish imtihonlari;

v) oliy ta'lim muassasalari bazasidagi harbiy ta'lim fakultetlariga (harbiy kafedra) qabul qilishdagi saralash tanlovlarning quyidagi bosqichlari;

umum jismoniy tayyorgarlikni baholash;

chaqiriqqacha boshlang'ich tayyorgarlik dasturi bo'yicha bilim darajasini baholash belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Mazkur Farmonda belgilab berilgan vazifalarni viloyat hokimining o'rinbosarlari tomonidan faoliyati muvofiqlashtirib boriladigan davlat organlari va tashkilotlarining hududiy bo'linmalarida ijrosini nazoratga olib, muhokamalar o'tkazib borishini ta'minlash yuzasidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar rejasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Viloyat Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (A.Esonov)ga viloyat teleradiokompaniyasi (Z.Darxonov), "Yangi Sirdaryo" va "Новая Сырдарья" gazetalari tahririyati (B.Boymurotov) bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoni mazmun-mohiyatini rasmiy veb-sayt, ijtimoiy tarmoqlar hamda ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Viloyat korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy Kengashi (A.Abdurahmonov) va viloyat hokimligining axborot xizmati rahbari (Z.Mirrahimov)ga mazkur Farmonning ijrosini samarali tashkil etish topshirilsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilishni o'z zimmasida qoldiraman.

Sirdaryo viloyati hokimi



A.Maxmudaliyev

Sirdaryo viloyat hokimining
2023-yil 30-noyabrdagi
374-9-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

**Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat
organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi
samaradorligini oshirish bo'yicha viloyat chora-tadbirlar
REJASI**

№	Tadbirning nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
1	Korrupsiyaga qarshi kurashishda fuqarolik jamiyati institutlari, tashkilotlari va ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish.	Xalq deputatlari viloyat, tuman (shahar) Kengashlari huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondlari tomonidan e'lon qilinadigan davlat grantlari ajratish uchun tanlovlarda muntazam ravishda korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishidagi mavzular kiritish.	2023-2024 yillarda	Xalq deputatlari viloyat, tuman (shahar) Kengashlari (kelishuv asosida)
2	Hududlar kesimida "Haj" tadbirlariga borish uchun navbatda turgan ziyoratchilarning yagona onlayn navbati to'g'risidagi (ziyosatga boruvchi shaxsning arizasi navbatga qo'yilgan sana, ro'yxatdagi tartib raqami va ziyorat turi) ma'lumotlar.	Hududlar kesimida "Haj" tadbirlariga borish uchun navbatda turgan ziyoratchilarning yagona onlayn navbati to'g'risidagi ma'lumotlarni belgilangan tartibda veb-saytga kiritib borish.	har chorakda	O'zbekiston musulmonlar idorasi viloyat vakili (kelishuv asosida)
3	Bolalarni davlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga qabul qilish uchun berilgan arizalar navbati (ro'yxati) to'g'risidagi (ariza navbatga qo'yilgan sana, ro'yxatdagi tartib raqami, yosh guruhi hamda tashkilot raqami) ma'lumotlar.	Bolalarni davlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga qabul qilish uchun berilgan arizalar navbati (ro'yxati) to'g'risidagi ma'lumotlarni belgilangan tartibda veb-saytga kiritib borish.	Har chorakda	Viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi (Sh.Xudaykulov)
4	Hokimliklarda davlat xaridlarini amalga oshirish tartib-taomillarini belgilovchi xarid komissiyasining ichki idoraviy tartibi (nizom, reglament, yo'riqnomasi yoki boshqa ichki idoraviy hujjat)	Hokimliklarda davlat xaridlarini amalga oshirish tartib-taomillarini belgilovchi xarid komissiyasining ichki idoraviy tartibi to'g'risidagi ma'lumotlarni veb-saytga joylashtirib borish.	Har chorakda	Viloyat hokimligi Ishlar boshqarmasi (A.Dexqonov)
5	Bo'sh ish o'rinlari (markaziy, hududiy va tizim tashkilotlarida), ishga qabul qilish shartlari, nomzodlarga qo'yiladigan talablar va taqdim qilinishi lozim bo'lgan hujjatlar to'g'risidagi ma'lumotlar.	Bo'sh ish o'rinlari (markaziy, hududiy va tizim tashkilotlarida), ishga qabul qilish shartlari, nomzodlarga qo'yiladigan talablar va taqdim qilinishi lozim bo'lgan hujjatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni veb-saytga kiritib borish.	Har oyda	Viloyat hokimligi Ishlar boshqarmasi (A.Dexqonov), Tashkiliy-kadrlar guruhi (D.Tashbayev)
6	Hokimliklar tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlariga taqdim etilgan grant va ijtimoiy buyurtma loyihalari haqidagi ma'lumotlar, shu jumladan g'olib bo'lgan nodavlat notijorat tashkilotlari va ularning buyurtma doirasida bajargan ishlari yuzasidan hisobotlari haqidagi ma'lumotlar.	Hokimlik tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlariga taqdim etilgan grant va ijtimoiy buyurtma loyihalari haqidagi ma'lumotlar, shu jumladan g'olib bo'lgan nodavlat notijorat tashkilotlari va ularning buyurtma doirasida bajargan ishlari yuzasidan hisobotlari haqidagi ma'lumotlarni veb-saytga joylashtirib borish.	Har yarim yillikda	Viloyat hokimining o'rinbosarlari

Izoh: *Mas'ul boshqarma va idoralar, viloyat hokimligining o'rinbosarlari (guruh va kotibiyatlari) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi PF-6247-son Farmoni 8-bandi va 2022-yil 14-iyundagi PF-154-son Farmoni 1-ilovasi 4-bandiga asosan yuqoridagi ma'lumotlar yig'in uchun belgilangan muddatda viloyat hokimligining Axborot xizmatiga eslatmasiz taqdim etib boradilar;*

Viloyat hokimligining Axborot xizmati tegishli ma'lumotlarni veb-saytga joylashtirib, belgilangan muddatlarda yangilab borilishini ta'minlaydi.